



ERON YADROVIY DASTURI ERON AMERIKA MUNOSABATLARIDA.

O'lmasov Sardorbek Sadirali o'g'li

JIDU huzuridagi Diplomatik akademiya uslubchisi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14851046>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Fevral 2025 yil
Ma'qullandi: 06-Fevral 2025 yil
Nashr qilindi: 11-Fevral 2025 yil

KEYWORDS

Eronning yadroviy dasturi,
Xalqaro atom energiyasi
agentligi, Yadro qurolini
tarqatmaslik to'g'risidagi
shartnoma, Birlashgan
Millatlar Tashkilotining
sanksiyalari, atom bombasi,
yadroviy energiyaning tinchlik
maqsadida foydalanilishi.

ABSTRACT

Eron Islom Respublikasi, 1950-yillardan boshlab atom energiyasidan tinch maqsadlarda, energiya ishlab chiqarish uchun rivojlantirmoqdamiz deb aytib keladi. Dunyo hamjamiyati esa Eron atom quroli ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqmoqda deb, Eronning ushbu davolariga shubha bilan qaraydi. Eron rasmiylari ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan faoliyatlarining maqsadi elektr energiyasi ishlab chiqarish va yadro energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq, ko'p davlatlar ushbu bayonotga shubha bilan qaramoqda. Maqolada Eronning yadro dasturi bo'yicha ma'lumotlar va xulosalar berib o'tilgan.

XXI asr boshida dunyodagi qaltis siyosiy vaziyat mintaqaviy va xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, keskin global raqobat sharoitida AQShning Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasiga oid strategiyasi, AQSh hukumati mintaqa o'rtasidagi munosabatlarning hozirgi holati va istiqbollari soha mutaxassislarining tadqiqot ishlaridagi dolzarb mavzuga aylangan. Xususan, bu borada mavjud muammolarni hal etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yirik xalqaro anjumanlar muhokama mavzusiga aylanib borayotganini ham kuzatilmogda.

Eronning yadro dasturi o'tgan asrning 1950-yillarida boshlangan bo'lib, xalqaro maydonda doimo ziddiyatlar sabab bo'lgan. Juda faol ravishda atom energetikasini rivojlantirib kelgan. Bu ko'p dunyo mamlakatlarida Eron yadro qurolini ishlab chiqish niyatida ekanligi to'g'risida shubha uyg'otgan. Eron Islom Respublikasi rasmiylari bu ayblovlarni doim inkor qilib, dasturdan faqatgina atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish ekanini ta'kidlab kelishgan. Ammo, Eronning yadro dasturiga bo'lgan ziddiyatli siyosati sababli xalqaro hamjamiyatda mana shunday bayonotning haqiqiylikiga ayrim shubhalar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Aslida, Islom Respublikasi o'zining yadro faoliyatini harbiy yo'nalishda rivojlantirgani bilan yadro quroliga ega bo'lgan kuchli yadro davlatlari bilan tenglasha olishi so'roq ostida qoladi. Eron, shuningdek, yadro qudratiga ega Isroil bilan keskin aloqalarga ega. Bundan tashqari, Amerikaning Eron yadro dasturiga nisbatan noroziligi va Eronga nisbatan kiritilgan sanksiyalar ostida ushbu dasturni qanchalik

darajada rivojlantira olishi ham ma'lum emas. Ma'lumki, 1968-yilda Eron butunjahonda yadro qurolini tarqatmaslik shartnomasini imzolagan va 1970-yilda uni ratifikatsiya qilgan. Eron atom energiyasining tinch maqsadlarda, ya'ni elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun qo'llanilishi bahonasida yillar davomida o'z dasturini rivojlantirib kelmoqda. Lekin, Eronning ushbu bayonoti global jamoatchilikda doimo shubha uyg'otib keladi.

Birinchiidan, texnologiyasining ikki tomonlama qo'llanilishi, ya'ni yadro energiyasi deb ataladigan fizik hodisa tufayli fuqarolik maqsadlarida atom energiyasini ishlab chiqarish va harbiy atom energetikasi kabi jarayonlarni aniq ajratish juda qiyin.

Ikkinchiidan, olimlarning ta'kidlashicha, Eron uchun atom energiyasi yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarish rentabel emas, chunki ushbu yo'nalishda qo'llash mumkin bo'lgan ulkan neft zahiralarga ega.

Uchinchiidan, Eronning yadroviy dasturi atrofidagi haddan tashqari sir saqlanishi shubhalarni kuchaytiradi. Bundan tashqari, atom energiyasiga oid ba'zi faoliyatlar tashqi halokatli hujumlardan himoya qilish uchun yer ostida olib boriladi. Bu yana bir bor Eronning yadroviy atrofidagi shubhalarni ko'paytiradi.

To'rtinchiidan, Eronning o'nlab yil davomida o'z hududida tobora ko'proq yadro inshootlarini qurayotgani, bularning barchasi faqat tinch maqsadlarda amalga oshirilmoqda, degan da'voni so'roq qilishga olib keladi.

1979-yilda Erondagi Islom inqilobi va Pahlaviy hukumatining ag'darilishi bilan mamlakatdagi vaziyat o'zgardi. Inqilobdan so'ng, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va diniy jihatidan tubdan o'zgardi va yangi hukumat yadro texnologiyalarini rivojlantirishni davom ettirdi, ammo bu dasturning harakatlari xalqaro jamoatchilikda xavotir uyg'otdi, chunki ba'zi mamlakatlar Eronning yadro quroliga ega bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan. Bu inqilob G'arb davlatlari bilan munosabatlarni yomonlashtirgan. Shuningdek, 1980-yillardagi Iroq bilan urush natijasida Respublikadagi ba'zi yadro obyektlari butunlay vayron bo'ldi. Inqilobdan keyin bir muncha vaqt yadro dasturi to'xtab qoldi. 1990-yillarning oxirlaridan boshlab, Eron yadro dasturi xalqaro hamjamiyat diqqat markaziga aylandi va 2000-yillarning boshlarida Eronning yadro qurollari ishlab chiqish niyatida bo'lishi mumkinligi haqidagi xavotirlar yanada kuchaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari Eronning yadroviy dasturiga nisbatan tobora salbiy munosabatda bo'lib keldi, bu ular tomonidan qo'yilgan sanksiyalar orqali bir necha bor tasdiqlandi. Biroq, Eron Rossiya va Xitoy bilan tobora siyosiy yaqinlashmoqda edi, bu esa ma'lum darajada Eronda harbiy yadroviy energiyani rivojlantirishga yordam berishi mumkin edi.

Masalan, Xitoy tomonidan Eronni ko'p yillar davomida, ayniqsa, 1980-1990-yillarda, katta miqdorda qurol-yarog' yetkazib berilgan, yadroviy dasturini qo'llab-quvvatlash uchun 1988-yildan 1992-yilgacha yadroviy muhandislariga o'quv mashg'ulotlari o'tkazgan.

Rossiya Eronda yadro qurolini to'g'ridan-to'g'ri rivojlantirishga yordam berayotganini tasdiqlovchi aniq dalillar yo'q, chunki reaktor qurilishida ishtirok etgan rossiyalik mutasaddilar, reaktor Xalqaro atom energiyasi AGENTLIGI qonuniga muvofiq ishlashini aytishgan.

Shu bilan birga, Eron mustaqil ravishda uranni boyitish texnologiyasini rivojlantirishga harakat qilmoqda, o'z harakatlarini atom bombasiga boyitilgan uran darajasiga yetkazish niyatida emas, balki tinch maqsadlarda foydalaniladigan reaktorlarga mo'ljallangan past

boyitilish darajasidagi yonilg'ini ishlab chiqarish va chetdan ta'minotga qaram bo'lmaslik niyati bilan izohlamoqda.

Eron va Xalqaro atom energiyasi agentligi o'rtasidagi hamkorlik deyarli har doim cheklangan bo'lgan. Xalqaro atom energiyasi agentligi 2003-yilda Eronning yadroviy dasturi bo'yicha surishtiruv keyin Eron jahon hamjamiyatining kuchaytirilgan e'tiboriga va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qo'yilgan sanksiyalarga duch keldi, ammo Islom Respublikasi o'z dasturidan to'liq voz kechmadi. Agentlik 2006-yilda vaziyatni mustaqil hal qila olmagan uchun Eronning yadro masalasini BMTga topshiradi. BMT tomonidan Eronga nisbatan yangi sanksiyalar kiritiladi. Lekin 2015-yilda Eron "oltilik guruhi" (AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya) bilan Keng qamrovli qo'shma harakatlar rejasini haqida bitim imzolagan edi. Reja Eron tomonidan yadro dasturi tugatilishi evaziga, Tehronga nisbatan iqtisodiy sanksiyalarning bosqichma-bosqich bekor qilinishini ko'zda tutardi. 2018-yilda AQSH prezidenti Donald Tramp bitimdan chiqishini e'lon qildi va Eronga qarshi sanksiyalarni qayta tikladi. Tehron keng qamrovli qo'shma harakatlar rejasiga rioya qilishdan bosh tortdi.

AQSh Prezidenti Jo Bayden ham o'z prezidentlik davrida bir necha bor Eronning yadroviy dasturiga nisbatan fikr bildirib, agar Eronda yadro quroli paydo bo'ladigan bo'lsa harbiy yo'l bilan uni hal qilishi mumkinligi haqida o'z tahdidlarini nomoyon qilgandi. 2024-yilda Xalqaro atom energiyasi agentli (MAGATE) boshqaruvchilar kengashi rezolyutsiya qabul qildi, unga ko'ra tashkilot rahbari Rafael Grossi 2025-yil bahorigacha Eron yadro dasturi bilan bog'liq vaziyat bo'yicha hisobot tayyorlashi kerak. MAGATE inspektorlari bir necha yillardan beri Tehron yadroviy qurol yaratish niyati yo'qligi haqida dalillar olishga urinmoqda. O'z navbatida, Eron Tashqi ishlar vazirligi MAGATE tomonidan Tehronni tanqid qiluvchi rezolyutsiya qabul qilinishiga javoban, mamlakat endi uranni tezlashtirilgan boyitish uchun yangi, zamonaviy sentrifugalardan foydalanishni boshlashi haqida xabar berdi. Eron TIV va Eron Atom energiyasi tashkilotining qo'shma bayonotida MAGATE rezolyutsiyasi Eronga qarshi qaratilgan "siyosiy maqsadli va buzg'unchi" ekani hamda "siyosiy noqonuniy maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilgani" qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anoushrevan Ehteshami. "The Foreign Policy of Iran," in The Foreign Policies of Middle East. // Boulder, Co.: Lynne Rienner, 2002.
2. Lubna Arshad. "Internal Dynamics of Iran's Foreign Policy". // Pakistan Horizon 57, no. 1.2004.
3. Briggs Kevin G., Nuclear Risks and Preparedness, 2014.
4. Goforth Sean, Axis of Unity: Venezuela, Iran and the Treat to America, 1st edition, the USA: Potomac Books, 2014.
5. Kang Jungmin, Assessment of the Nuclear Programs of Iran and
6. Kerr Paul K., Iran's Nuclear Program Status, the USA : Congressional Research Service, 2009.